

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.F.08.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI

RAHMONOVA SANOAT SHUHRAT QIZI

**O‘ZBEKISTONNING BARQAROR TARAQQIYOTINI TA’MINLASHDA
MA’NAVIY-MA’RIFIY ISLOHOTLAR IMPLEMENTATSIYASI:
IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLIL**

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

**FALSAFA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTASIYASI
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2026

**Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по философским наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)
on philosophical sciences**

Rahmonova Sanoat Shuhrat qizi

О‘zbekistonning barqaror taraqqiyotini ta’minlashda ma’naviy-ma’rifiy
islohotlar implementatsiyasi: ijtimoiy-falsafiy tahlil.....5

Рахмонова Саноат Шухрат кизи

Имплементация духовно-образовательных реформ в обеспечении
устойчивого развития Узбекистана: социально-философский анализ23

Rahmonova Sanoat Shuhrat kizi

Implementation of spiritual-educational reforms ensuring sustainable
development of Uzbekistan: a socio-philosophical analysis45

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of published works.....50

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.F.08.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI

RAHMONOVA SANOAT SHUHRAT QIZI

**O‘ZBEKISTONNING BARQAROR TARAQQIYOTINI TA’MINLASHDA
MA’NAVIY-MA’RIFIY ISLOHOTLAR IMPLEMENTATSIYASI:
IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLIL**

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

**Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.4.PhD/Fal1502 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat transport universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Turdiyev Bexruz Sobirovich
falsafa fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Safarova Nigora Olimovna
falsafa fanlari doktori, professor

Pardayeva Marxabo Davlatovna
falsafa fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Qarshi davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.F.08.02 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "30" aprel soat 12⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-29-14; faks: (65)221-57-27; e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz).

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (865 - raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (65)221-29-14; faks: (0365)221-29-14.)

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "15" aprel kuni tarqatildi.

(2026-yil "15" aprel dagi 8 raqamli reyestr bayonnomasi.)



Namozov B.B.
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
falsafa fanlari doktori, professor

Sharipov A.Z.
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash kotibi,
falsafa fanlari doktori, professor

Muzaffarov F.D.
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi o'rinbosari,
falsafa fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda globallashuvning chuqurlashuvi sharoitida ma'naviy-mafkuraviy makonda yuz berayotgan o'zgarishlar, g'oyaviy qarama-qarshiliklarning keskinlashuvi ma'naviy-ma'rifiy islohotlar tizimini tubdan qayta ko'rib chiqish hamda uning institutsional mexanizmlarini zamon talablariga mos ravishda takomillashtirishni talab etmoqda. Ayniqsa, fuqarolarda sog'lom dunyoqarash, tanqidiy tafakkur va ma'naviy daxldorlikni qaror toptirish, ularning turli g'oyaviy tajovuzlarga nisbatan mafkuraviy immunitetini shakllantirishda ma'naviy-ma'rifiy targ'ibotning ta'sirchanligini ta'minlaydigan zamonaviy mexanizmlar, innovatsion yondashuvlar va mezonlarni ishlab chiqish alohida ahamiyatga ega. Shuning uchun ma'naviy-ma'rifiy islohotlarning tarbiyaviy-axloqiy, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy va madaniy-gumanitar yo'nalishlardagi transformatsion xarakteri, ochiqlik va bag'rikenglik tamoyillarini ro'yobga chiqarishi, tarixiylik va zamonaviylik, universallik va milliylik xususiyatlarini ochib berish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon ilm-fani, yetakchi ilmiy markazlar, tadqiqot institutlari va ta'lim muassasalarida jamiyat taraqqiyotida ma'naviy-ma'rifiy islohotlarning o'rni va ahamiyati, bu jarayonlarni kompleks baholash, ularning ustuvor yo'nalishlarini aniqlash, ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. Jamiyatning ma'naviy barqarorligi yuksak ma'naviyatli, qat'iy hayotiy pozitsiya, keng dunyoqarashga ega bo'lgan yoshlarni tarbiyalash, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, insonparvarlik g'oyalari xavf soluvchi turli ichki va tashqi tahdidlardan himoya qilish bilan uzviy bog'liq. Shu nuqtai nazardan, ma'naviy-ma'rifiy islohotlar va ularni amalga oshirishning strategik yo'nalishlari, ta'sirchan, kreativ va innovatsion uslublarini aniqlash, potensial imkoniyatlarini oshirish omillarini tadqiq etish zarurati tobora ortib bormoqda.

Mamlakatimizda Yangi O'zbekiston sharoitida ma'naviy-ma'rifiy islohotlar mazmunini jamoatchilikka yetkazish, milliy tarbiya an'alarini asrash, kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan faoliyatni takomillashtirish, yoshlarning intellektual salohiyati, ongu tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirish, mafkuraviy immunitetini mustahkamlash, ularni islohotlarning faol ishtirokchisiga aylantirish borasida tizimli ishlar olib borilmoqda. "Jamiyatning kelajagi porloq va buyuk bo'lishi uchun ma'naviyat sohasida taraqqiyot tamoyillariga asos bo'ladigan tayanch shart-sharoitlarni yaratishga kuchli ehtiyoj mavjud. Hozirgi jadal rivojlanish davrida iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy o'zgarishlar bilan bir qatorda ma'naviy-ma'rifiy sohada olib borilayotgan islohotlarimiz ham katta ahamiyat ega"¹. Bu borada ma'naviy-ma'rifiy islohotlarda Yangi O'zbekiston fenomenining regenerativ xususiyati, dialektik tendensiyalarini aniqlash hamda xalqaro reytinglar va indekslarda mamlakat nufuzini oshirishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

¹ Mirziyoyev Sh.M. Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston. –Toshkent: "O'zbekiston", 2024. –B.126.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-sonli “Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 4-martdagi PF-6181-sonli “2021-2025 yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-sonli “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta‘lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” farmonlari, 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-sonli “Yoshlarni ma‘naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta‘lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-sonli “Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 18-yanvardagi 23-sonli “O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2019-yil 31-dekabrda 1059-sonli “Uzluksiz ma‘naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda sohaga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahon falsafa tarixida ma‘rifat davrining asoslari, inson aql-idroki, bilim va erkinlikning qadriyat sifatida shakllanishi, islohotlar va ijtimoiy modernizatsiyaning ma‘rifat bilan uzviy bog‘liqligi, ma‘naviyat orqali insonni yuksaltirish va jamiyatni isloh qilish muammolari E.Kassirer, D.Beales, A.Thiher, J.Klark, S.Vivekananda, A.Braun kabi olimlar tomonidan o‘rganilgan. Ma‘naviyat va ma‘rifatning jamiyat, siyosat, iqtisod va inson rivojlanishining asosiy mexanizmi sifatidagi ahamiyati B.Garner, A.Margarida, B.Johannes, Z.Badri, C.Desirée, F.Jon tomonidan olib borilgan dissertatsion tadqiqot ishlarida o‘z ifodasini topgan².

² Ernst Cassirer. *The Philosophy of the Enlightenment*. –USA: Princeton University Press, 2009. -392 p.; Derek Beales. *Enlightenment and Reform in Eighteenth-Century Europe*. –New York: I. B. Tauris, 2005. -256 p.; Allen Thiher. *Reform For An Enlightenment Education*. – Washington: Academica Press, 2020. -218 p.; Jonathan Clark. *From Restoration to Reform*. –UK: Vintage, 2014. - 384 p.; Swami Vivekananda. *Education to Enlightenment: Manifestation of the Perfection Inside Us*. –Delhi: Institute of Thought & Philosophy, 2023. -40 p.; Anna Robertson Brown. *Culture and Reform*. –New York: Dimensions, 2017. -34 p. Garner B. *Trade. Culture and the New Politics of Cultural Development at UNESCO*. PhD thesis. –UK: University of Manchester, 2010. 288 p.; Azevedo Margarida. *The evaluation of the social impacts of culture: culture, arts and development*. École doctorale d’Économie Panthéon Sorbonne Thèse. –Paris: Université Paris Panthéon Sorbonne, 2016. -327 p.; Buggle Johannes C. *Essays on culture, institutions and long-term development*. Thesis. –Paris: Institut d’études politiques, 2015. -123 p.; Zolfaghari Badri. *An examination of cross-cultural trust development: adopting a ‘mosaic theory’ perspective of culture*. Doctoral thesis. –UK: Durham university, 2014. -298 p.; Campagna, Desirée. *The Impacts of Participatory Governance on Cultural Development: Evidence from European Capitals of Culture*. Doctoral thesis. – Padova: Università degli studi di Padova, 2019. -274 p.; Fisher John. *Reaching the heart: Assessing & nurturing spiritual well-being via education*. Thesis, University of Ballarat, 2008. -41 p.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi olimlaridan islohotlarning madaniy fenomen sifatidagi roli, ma'naviy-ma'rifiy yangilanishlarning identiklikni shakllantirishdagi o'rni, uning ijtimoiy vazifalari, mexanizmlari ko'rib chiqilgan va samarali davlat siyosatini amalga oshirish yo'llari nazariy jihatdan tahlil etilgan ishlar qatoriga T.Pospelova, N.Kolosova, F.Belozor ilmiy ishlarini, globallasuv sharoitida ma'rifiy modernizatsiyasialashuv, uning samaradorligini oshirish masalalarining zamonaviy yechimlariga O.Kormilisina, Y.Neginskiy, N.Zima, N.Genova kabi tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlarini misol keltirish mumkin³.

O'zbekistonda F.Yuldasheva, K.Haydarov, M.Abbasova, M.Bo'ronov, X.Axmedov, A.Sharipov tadqiqotlarida globalizatsiya jarayonlari sharoitida O'zbekistonda ma'naviy yangilanish jarayonining tahlili, sog'lom ma'naviy raqobat muhiti, ma'naviy tiklanishning ma'rifiy rivojlanishdagi roli, ma'naviy jarayonlarning siyosiy islohotlar bilan bog'liqligi, demokratik jamiyat rivojlanishida ma'naviy yangilanish jarayonining strategik yo'nalishlari yoritilgan. S.Otamuratov, A.Erkayev, M.Xolmirzayev, O.Bozorov va bir qator olimlarning ilmiy tadqiqotlari Uchinchi Renessans poydevorini qurishda milliy g'oya zarurati masalalari, jamiyat taraqqiyotidagi o'zgarishlarning milliy mafkura va ijtimoiy taraqqiyot bilan bog'liq jihatlari, jamiyat ideosferasining ijtimoiy taraqqiyotga ta'siri kabi masalalar tadqiq etilgan. Q.Nazarov, M.Quronov, N.Jo'raev, J.Yaxshilikov, N.Muhammadiyev, O'.Abilov, I.Ergashev, N.Safarova, B.Turdiyev asarlarida milliy yuksalishning g'oyaviy masalalari tahlil qilingan. Yangi O'zbekiston fenomeni, taraqqiyot strategiyalarining jamiyat rivojidagi o'rni, milliy g'oya tamoyillari va mafkuraviy faoliyatning ijtimoiy taraqqiyotdagi o'rniga F.Muxitdinov, S.Choriyev, M.Pardayeva tadqiqotlarida alohida e'tibor qaratilgan⁴.

³ Пospelova T.П. Национально-культурная идентичность российского общества в условиях проведения образовательных реформ. дисс. кандидата наук. –Нижний Новгород, 2014. 168 с.; Колосова Н. Н. Общественная реформа в контексте культурологического анализа. дисс. кандидата философских наук. – Ростов-на-Дону, 2005. 137 с.; Белозор Ф. И. Государственное управление сферой культуры региона в условиях общественной трансформации. дисс. кандидата социологических наук. –Москва, 2001. 149 с.; Кормилицина О. В. Модернизация культуры и образования в условиях глобализации и независимого развития (социально-философский анализ). дисс. кандидата философских наук. –Москва, 2003. 187 с.; Негинский Е. С. Структурно-функциональная модернизация сферы культуры в современных условиях. дисс. кандидата культурологии. –Москва, 2011. 168 с.; Зима Н. А. Глобализация культуры и специфика ее проявления в России. дисс. кандидата философских наук. –Ставрополь, 2005. 170 с.; Генова Н. М. Культурная политика в процессе модернизации инфраструктуры культурного пространства региона. дисс. доктор культурологии. – Омск, 2012. 332 с.

⁴ Юлдашева Ф. Х. Ўзбекистонда глобallasув шароитида маънавий янгиланишнинг ўзига хос хусусиятлари. фалсафа фан. фалсафа доктори дис. Тошкент, 2019. 225 б.; Ҳайдаров К. Д. Янгиланаётган Ўзбекистонда маънавий қадриятларнинг тикланиши ва унинг узлуксиз таълим тизимидаги аҳамияти фалсафа фанлари доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Samarqand, 2022. 259 б.; Аббасова М. С. Соғлом маънавий рақобатнинг жамият ижтимоий муҳитини янгилашга таъсири фалсафа фан. фалсафа доктори (PhD) дис. Samarqand, 2022. 113 б.; Бўронов М. М. Ўзбекистонда маънавий тикланиш ва юксалишнинг ижтимоий-фалсафий масалалари. фалсафа фан. фалсафа доктори (PhD) дис. Тошкент, 2020. 136 б.; Ахмедов Х. А. Ўзбекистонда жамият маънавий ҳаётидаги ўзгаришлар динамикаси (ижтимоий-сиёсий таҳлил). Тошкент, 2018. 223 б.; Шарипов А.З. Янги Ўзбекистонда маънавий-мафкуравий ислохотлар трансформациясининг ижтимоий-фалсафий таҳлили. фалс.д. (DSc) дисс. автореф. – Бухоро: БухДУ, 2021. 72 б.; Турдиев Б.С. Ўзбекистонда демократик жамият ривожланишида маънавий янгиланишлар стратегияси. фалс.д. (PhD) дисс. автореф. – Бухоро: БухДУ, 2021. 49 б.; Отамуродов С. Глобallasув: миллатни асраш масъулияти. –Тошкент: “O‘zbekiston”, 2018. –352 б.; Эркаев А. Янги Ўзбекистон: мўлжал – Учинчи Ренессанс. –Тошкент: “Маънавият”, 2021. –96 б.; Yaxshilikov J.Ya., Xolmirzayev M.A. O'zbekistonning milliy manfaatlarini himoya qilishda g'oyaviy-mafkuraviy xavfsizlikni ta'minlash qonuniyatlari. –Samarqand: “SamDCHITI nashriyoti”, 2025. 160 b.; Бозоров О. Миллий ғоя ва тарғибот самарадорлиги. –Тошкент:

Tadqiqot olib borish jarayonida mavzuga oid tadqiqotlar, olimlarning ilmiy qarashlari hamda nazariy tahlillari metodologik ahamiyat kasb etdi. Shu bilan birga, Yangi O‘zbekiston sharoitida jamiyat ma’naviy hayotini rivojlantirish, uni ijtimoiy ongga singdirish va mazkur jarayondagi o‘zgarishlarni izohlash borasida hali yetarli ilmiy izlanishlar olib borilmagani, ma’naviy-ma’rifiy islohotlarning amaliyotga joriy etish mexanizmlari bilan bog‘liq masalalar hali yetarli darajada tadqiq etilmagan. Ana shu ehtiyojdan kelib chiqib, mazkur tadqiqotda ma’naviy-ma’rifiy jarayonlarning mazmuni, islohotlarning ilmiy-nazariy va metodologik asoslarini tadqiq etishga alohida e’tibor qaratilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat transport universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq II band “Yangi O‘zbekistonda ma’rifatparvar davlat barpo etishning ijtimoiy-falsafiy va ma’naviy-axloqiy asoslarini takomillashtirish muammolari” (2022-2026 yy.) tadqiqot yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti sharoitida ma’naviy-ma’rifiy islohotlar samaradorligini oshirish mexanizmlarini asoslashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

ma’naviy-ma’rifiy islohotlar tushunchasining mazmuni, tarkibi va o‘ziga xos xususiyatlarini tadqiq etish;

barqaror taraqqiyot tizimida ma’naviy-ma’rifiy islohotlarning o‘rni, funksiyalari va ijtimoiy ahamiyatini ochib berish;

Sharq va G‘arb mutafakkirlari merosida ma’naviy-ma’rifiy masalalar, ularning g‘oyaviy manbalarini tadqiq etish;

“Yangi O‘zbekiston” fenomenining shakllanish omillari, uning taraqqiyot paradigmasi sifatidagi mohiyatini asoslash;

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ma’naviy-ma’rifiy islohotlarning konseptual asoslari, tamoyillari va ustuvor yo‘nalishlarini aniqlashtirish;

ma’rifatli jamiyatni barpo etishda ma’naviy-ma’rifiy islohotlarni takomillashtirish imkoniyatlari va samarasini oshirish mexanizmlariga oid takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti sifatida O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ma’naviy-ma’rifiy islohotlar, ularning jamiyat hayoti, ijtimoiy ong, qadriyatlar tizimi va taraqqiyot jarayoniga ta’siri tanlab olingan.

“Ma’naviyat”, 2018. –32 b.; Safarova N.O. “Intangible values and cultural heritage”. Theoretical & Applied Science 6 (2024): 183-185.; Назаров Қ., Эргашев И. ва бошқалар. Миллий ғоя ва раҳбар масъулияти. - Тошкент: Фафур Ғулом, 2007. -736 б.; Куронов М. Бетакроримсан, ягонасан, она ватаним, Ўзбекистоним. - Тошкент: Маънавият, 2015. -160 б.; Жўраев Н. Ўзбекистоннинг маънавият стратегияси. -Тошкент: Маънавият, 2016. -32 б.; Яхшиликков Ж.Я., Мухаммадиев Н.Э. Миллий ғоя -тараққиёт стратегияси. Монография. -Тошкент: “Фан”, 2017. -424 б.; Сафарова Н. Терроризм: тарихий-фалсафий таҳлил. -Тошкент: “Noshir”, 2009. -213 б.; Turdiyev B. O‘zbekistonning ma’naviy yangilanish strategiyasi. -Buxoro: Durдона, 2020. - 48 б.; Абилов Ў. Ўзбекистон тараққиётининг оптимистик руҳи. -Тошкент: 2003. -208 б.; Эргашев И., Худойбердиев Х., Қахрамонов А. Ўзбекистоннинг мустақил тараққиёт йўли ва мафкуравий жараёнлар. - Тошкент: Ижод дунёси, 2002. -32 б.; Чориев А. Инсон фалсафаси. Ижтимоий тарбия. Учинчи китоб.- Қарши: Илм-фан-маънавият, 2024.- Б.193.; Pardayeva M.D. “Yangi O‘zbekiston: ajdodlarimizning boy merosi va qo‘shnichilik munosabatlari” //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, vol. 1, no. 7, 2021, pp. 371-378.

Tadqiqotning predmeti barqaror taraqqiyotni ta'minlashga qaratilgan ma'naviy-ma'rifiy islohotlarning nazariy-metodologik asoslarini, yo'nalishlarini, strukturaviy-funksional xususiyatlari hamda ularni takomillashtirish mexanizmlarini tadqiq etishdan iborat.

Tadqiqot usullari. Dissertatsiyada analiz va sintez, kompleks yondashuv, tizimli-funksional yondashuv, kontent analiz, retrospektiv tahlil, dialektik, sinergetik, qiyosiy tahlil kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida ma'naviy-ma'rifiy islohotlarning tarbiyaviy-axloqiy, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy va madaniy-gumanitar yo'nalishlardagi transformatsion xarakteri, milliy yuksalishning mezoniga aylangani, ochiqlik va bag'rikenglik tamoyillarini ro'yobga chiqarishi, tarixiylik va zamonaviylik, universallik va milliylik xususiyatlarining o'zaro birligi orqali barqarorlikka xizmat qiluvchi sifat o'zgarishlarini yuzaga keltirgani asoslangan;

Sharq va G'arb mutafakkirlarining ma'naviy-ma'rifiy qarashlari asosida inson – jamiyat – qadriyatlar munosabati, ma'naviy yuksalish, madaniy vorisiylik va sivilizatsiyalararo muloqot, hamjihatlik, bag'rikenglik va o'zaro hurmat tamoyillari asosida birlashtirish, axloqiy meyor, ijtimoiy mas'uliyat va insonparvarlik mezonlarini shakllantiruvchi konseptual tamoyillar hamda ularning Uchinchi Renessans g'oyasini mazmunini boyitish, uning ma'naviy-intellektual asoslarini shakllantirish va milliy taraqqiyot strategiyasining mezonlarini belgilashdagi metodologik ahamiyati ochib berilgan;

Yangi O'zbekiston fenomenining regenerativ xususiyati (tarixiy-madaniy merosni zamonaviy taraqqiyot ehtiyojlari bilan uyg'unlashtirish orqali jamiyat ongi va ma'naviy qiyofasini bosqichma-bosqich yangilash), dialektik tendensiyalari (ijtimoiy ong transformatsiyasi, qadriyatlar tizimining mustahkamlanishi va fuqarolik mas'uliyatining kuchayishi bilan uzviy aloqadorligi) xalqaro reytinglar va indekslarda mamlakat nufuzini oshirishi hamda inson kapitali rivojini ta'minlashi isbotlangan;

ma'naviy-ma'rifiy islohotlar samaradorligini oshirishda madaniy tadbirlar, festival va forumlarni yagona ma'naviy-ma'rifiy "yo'l xaritasi" asosida tashkil etish, huquqiy-meyoriy hujjatlar bilan institutsional jihatdan qo'llab-quvvatlash, manzilli dasturlarni joriy etish, jismoniy tarbiya va sportni ma'naviy tarbiya bilan integratsiyalash, raqamli savodxonlikni oshirishga qaratilgan integrativ mexanizmlarni kuchaytirish hamda monitoring va baholash indikatorlarini joriy etishga oid tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

barqaror taraqqiyotni ta'minlashda ma'naviy-ma'rifiy islohotlarning jamiyatda barqarorlikni mustahkamlash, fuqarolik mas'uliyati va ijtimoiy faollikni kuchaytirish, mustaqil tafakkurini shakllantirishdagi roli hamda ijtimoiy ong transformatsiyasini ta'minlash, milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligini qaror toptirish, taraqqiyotning ma'naviy-aksiologik poydevorini mustahkamlashga xizmat qiluvchi ahamiyati ochib berilgan;

ma'naviy-ma'rifiy islohotlar sohasidagi o'zgarish va yangilanishlar jarayonining jamiyat taraqqiyoti ehtiyojlari bilan uzviy bog'liq holda yuzaga kelishi, ijtimoiy ong va qadriyatlar transformatsiyasi bilan birga kechishi, an'anaviy va innovatsion yondashuvlar uyg'unligi asosida rivojlanishi kabi qonuniyatlari hamda milliy qadriyatlar va tarixiy merosga tayanish, davlat va jamoatchilik institutlari hamkorligi asosida amalga oshirilish, yoshlar tarbiyasida mafkuraviy immunitetni mustahkamlash kabi xususiyatlari aniqlashtirilgan;

ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishda uning maqsadli auditoriyaga yo'naltirilgan shakllarini kuchaytirish hamda ta'sirchanligini oshirish, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar samaradorligini monitoring qilish, hududlar kesimida tahliliy ma'lumotlar tayyorlash, turli ijtimoiy qatlamlar bilan differensial ishlash, hududiy xususiyatlarni hisobga olgan holda targ'ibot dasturlarini shakllantirish zarurati asoslab berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot jarayonida qo'llanilgan nazariy qarashlar, tadqiqot usullari va yondashuvlar rasmiy manbalar, faktlar, statistik ma'lumotlarga murojaat qilingan holda olinganligi, tushuncha definitsiyasi ilmiy tadqiqot metodologiyasi va mantiq talablariga amal qilgan holda ishlab chiqilganligi, nashr etilgan ilmiy maqolalar, respublika va xalqaro konferensiyalarda sinovdan o'tkazilganligi, tadqiqot ishi natijalari bo'yicha berilgan xulosalar asosida takliflar ishlab chiqilgan bo'lib, tavsiyalar amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ma'naviy-ma'rifiy islohotlarning jamiyatni barqarorlashtirish va modernizatsiyalash jarayoni, jamiyatning ma'naviy-ma'rifiy yuksalishi bilan bog'liq bo'lgan muammolarni tadqiq etish hamda ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini takomillashtirish yo'nalishidagi ilmiy, nazariy va fundamental tadqiqotlarda, shuningdek, turli meta-ma'lumotlar, statistik dalillar, analitik xulosalar va konseptual umumlashmalarni shakllantirish, ularni ijtimoiy-falsafiy tadqiqotlarda qo'llashda hamda ma'naviy-ma'rifiy islohotlarning jamiyatni birlashtiruvchi, ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlovchi va inson omilini taraqqiyotning markaziy mezoniga aylantiruvchi falsafiy mohiyatini asoslashda nazariy-metodologik asos sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, unda ilgari surilgan taklif va tavsiyalar ma'naviy-ma'rifiy ishlarni sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladigan maqsadli dasturlar, hududiy "yo'l xaritalari", ma'naviy-ma'rifiy faoliyatni rejalashtirish, aholining turli qatlamlari bilan ishlashga mo'ljallangan differensial yondashuvlarni ishlab chiqish, targ'ibot va tashviqot ishlarining ta'sirchanligini oshirishda, shuningdek, davlat va jamoat tashkilotlari, ta'lim muassasalari, mahalla hamda ommaviy kommunikatsiya tizimlari faoliyatida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni mazmunan boyitish, ularni aniq maqsadli auditoriyaga yo'naltirish, interaktiv va innovatsion shakllarda tashkil etish, yoshlar ongida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni mustahkamlashga qaratilgan uslubiy tavsiyalarni ishlab chiqishda, oliy ta'lim muassasalarida "Ma'naviyatshunoslik", "Kasbiy ma'naviyat", "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar

metodikasi” kabi fanlarning o‘quv-uslubiy majmualarini takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O‘zbekistonning barqaror taraqqiyotini ta‘minlashga qaratilgan ma‘naviy-ma‘rifiy islohotlarning ijtimoiy-falsafiy tahlilini amalga oshirish jarayonida olingan ilmiy natijalar asosida:

O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida ma‘naviy-ma‘rifiy islohotlarning tarbiyaviy-axloqiy, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy va madaniy-gumanitar yo‘nalishlardagi transformatsion xarakteri, milliy yuksalishning mezoniga aylangani, ochiqlik va bag‘rikenglik tamoyillarini ro‘yobga chiqarishi, tarixiylik va zamonaviylik, universallik va milliylik xususiyatlarining o‘zaro birligi orqali barqarorlikka xizmat qiluvchi sifat o‘zgarishlarini yuzaga keltirganiga doir ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalardan O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligining 2024-2025-yillardagi faoliyati, jumladan 2025-yil ikkinchi yarim yillik ish rejasi “VII. Yoshlarni Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning huquqiy madaniyatini yuksaltirish, voyaga yetmaganlar o‘rtasida huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olish”ga qaratilgan dasturlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligining 2025-yil 7-oktyabrdagi 2-13-21-5385-son ma‘lumotnomasi). Natijada, ma‘naviy-ma‘rifiy targ‘ibot sohasida olib borilayotgan ishlarning samaradorligini oshirish, aholining, ayniqsa yoshlarning bilim va tafakkur salohiyatini yuksaltirish, dunyoqarashini kengaytirish, ularni Vatanga sadoqatli, ijtimoiy mas‘uliyatli va fidoyi barkamol avlod qilib tarbiyalashga xizmat qilgan;

Sharq va G‘arb mutafakkirlarining ma‘naviy-ma‘rifiy qarashlari asosida inson – jamiyat – qadriyatlar munosabati, ma‘naviy yuksalish, madaniy vorisiylik va sivilizatsiyalararo muloqot, hamjihatlik, bag‘rikenglik va o‘zaro hurmat tamoyillari asosida birlashtirish, axloqiy meyor, ijtimoiy mas‘uliyat va insonparvarlik mezonlarini shakllantiruvchi konseptual tamoyillar hamda ularning Uchinchi Renessans g‘oyasini mazmunini boyitish, uning ma‘naviy-intellektual asoslarini shakllantirish va milliy taraqqiyot strategiyasining mezonlarini belgilashdagi metodologik ahamiyatiga oid xulosalar va tavsiyaviy xarakterdagi natijalardan O‘zbekiston Milliy universitetida bajarilgan A-OT-2021-11-raqamli “O‘zbek xalqi diniy va milliy qadriyatlari kompleksining elektron-transditsiplinar platformasini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihani bajarishda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy universitetida 2025-yil 29-oktyabrdagi 04/11-7492-son ma‘lumotnomasi). Natijada, yosh avlodning ma‘naviy kamoloti uchun qulay sharoit yaratib, jamiyatda ma‘naviy barkamol, bilimli, vatanparvar, tashabbuskor va mas‘uliyatli avlodini tarbiyalash, ularni hayot sinovlariga tayyorlash hamda O‘zbekistonning taraqqiyoti uchun fidokor kadrlarni yetishtirishga xizmat qilgan;

Yangi O‘zbekiston fenomenining regenerativ xususiyati (tarixiy-madaniy merosni zamonaviy taraqqiyot ehtiyojlari bilan uyg‘unlashtirish orqali jamiyat ongi va ma‘naviy qiyofasini bosqichma-bosqich yangilash), dialektik tendensiyalari (ijtimoiy ong transformatsiyasi, qadriyatlar tizimining mustahkamlanishi va fuqarolik mas‘uliyatining kuchayishi bilan uzviy aloqadorligi) xalqaro reytinglar va indekslarda mamlakat nufuzini oshirishi hamda inson kapitali rivojini ta‘minlashi bo‘yicha ishlab chiqilgan ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalardan

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining faoliyatida, jumladan, 2024-yilda ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturining IV yo'nalishida belgilangan "Aholi o'rtasida vatanparvarlik tuyg'ularini yuksaltirish, yangilanish jarayonlari va tub islohotlarga daxldorlik xissini uyg'otish, tarixiy va muhim sanalarda ularni birlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar" 23-bandi "Yoshlarda yuksak vatanparvarlik, milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini rivojlantirish, harbiylar, vatan himoyachilariga hurmat uyg'otish, Vatanni himoya qilishni eng sharaflı burch ekanligini keng targ'ib qilish bo'yicha amaliy chora-tadbirlarni yo'lga qo'yish" mavzusida targ'ibot ishlarini tashkil etish va o'tkazishda foydalanilgan (Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar institutining 2025-yil 20-oktyabrdagi 10/672-son ma'lumotnomasi). Natijada, ma'naviy-ma'rifiy islohotlarni yanada samarali tashkil etish hamda O'zbekistonning Uchinchi Renessans poydevorini mustahkamlash yo'lida amalga oshiriladigan targ'ibot tadbirlarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etishga xizmat qilgan;

ma'naviy-ma'rifiy islohotlar samaradorligini oshirishda madaniy tadbirlar, festival va forumlarni yagona ma'naviy-ma'rifiy "yo'l xaritasi" asosida tashkil etish, huquqiy-meyoriy hujjatlar bilan institutsional jihatdan qo'llab-quvvatlash, manzilli dasturlarni joriy etish, jismoniy tarbiya va sportni ma'naviy tarbiya bilan integratsiyalash, raqamli savodxonlikni oshirishga qaratilgan integrativ mexanizmlarni kuchaytirish hamda monitoring va baholash indikatorlarini joriy etishga oid tavsiyalar va ilmiy yangiliklardan Buxoro viloyati teleradiokanalining "Maxsus reportaj", "Konstitutsiya qomusimiz" teledasturlarida e'fırga uzatilgan ko'rsatuvlar va radioeshittirishlari ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi Buxoro viloyat teleradiokompaniyasining 2025-yil 13-sentyabrdagi 01-09-234 son ma'lumotnomasi). Natijada, Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ma'naviy-ma'rifiy islohotlarni insonparvarlik va madaniy vorisiylikka tayanib zamonaviy kontekstda boyitish va milliy qadriyatlarni umuminsoniy kontekstda davom ettirish, ma'naviy-ma'rifiy islohotlarning mohiyatini jamoatchilikka yetkazish, xalqimizning tarixiy merosi, urf-odatları, milliy tarbiya an'alarini mustahkamlashga qaratilgan milliy kontent materiallarini tayyorlab, ularni ommalashtirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 20 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 12 ta ilmiy maqola (5 ta respublika va 7 ta xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya umumiy hajmi 166 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **“Kirish”** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, dissertatsiya bajarilgan ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi tavsiflangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti, predmeti, tadqiqotda qo‘llanilgan usullar yoritilgan. Shuningdek, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan hamda dissertatsiya natijalarining joriy qilinishi, aprobatsiyasi, e‘lon qilinganligi, tuzilishi va hajmi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Barqaror taraqqiyotni ta‘minlashda ma‘naviy-ma‘rifiy islohotlarning ahamiyatini tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslari”** deb nomlanib, unda “ma‘naviyat”, “ma‘rifat” va “islohot” tushunchalarining falsafiy mohiyati, ma‘naviy-ma‘rifiy islohotlarning ijtimoiy funksiyalari, qonuniyatlari, tizimli xususiyatlari, tuzilmaviy-funksional elementlariga izoh berilgan, shuningdek, Sharq va G‘arb mutafakkirlari merosida ma‘naviy-ma‘rifiy masalalar tadqiq etilgan.

Har qanday jamiyatning barqaror rivojlanishi faqat moddiy omillar, iqtisodiy ko‘rsatkichlar yoki institutsional yangilanishlar bilan emas, balki inson ongi, qadriyatlar tizimi, axloqiy mezonlar va ma‘naviy yuksalish darajasi bilan ham belgilanadi. Shu ma‘noda ma‘naviy-ma‘rifiy islohotlar jamiyat taraqqiyotining mazmun-mohiyatini, g‘oyaviy yo‘nalishini va ijtimoiy barqarorligini belgilovchi muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Tadqiqotda ma‘naviy-ma‘rifiy islohotlarning falsafasiga ham tarixiylik va zamonaviylik, barqarorlik va o‘zgaruvchanlik xosligi ta‘kidlangan. Jamiyat va davlat hayotida ma‘naviy-ma‘rifiy islohotlar, *birinchidan*, insonning ichki olamini, uning axloqiy fazilatlarini, tafakkuri, dunyoqarashi va ma‘naviy salohiyatini yuksaltiruvchi va rivojlantiruvchi chora-tadbirlar; *ikkinchidan*, ilm-fan, ta‘lim-tarbiya, texnika, madaniyat va san‘at sohalarini chuqur isloh qilib, ma‘rifatli jamiyat qurishiga xizmat qilishi; *uchinchidan*, jamiyatdagi ijtimoiy ong va yangicha dunyoqarashni shakllantirib, umuminsoniy, falsafiy, estetik va axloqiy qadriyatlar asosida taraqqiyotga yo‘naltirishi; *to‘rtinchidan*, milliy o‘zlikni anglash, tarixiy-madaniy merosga hurmat, vatanparvarlik va fuqarolik mas‘uliyatiga sodiqlikni tarbiyalashi asoslab berilgan.

Shundan kelib chiqib, jamiyat hayotida ma‘naviy-ma‘rifiy islohotlarning funksiyalari shartli ravishda to‘rtga ajratib tahlil etilgan:

birinchidan, bilish funksiyasi. Jamiyatda ma‘naviy-ma‘rifiy islohotlarning amalga oshirilishi insonlarning borliqni o‘rganish jarayonida turli bilimlarni o‘zlashtirishga, olam to‘g‘risida muayyan tasavvur hosil qilishiga ehtiyoj sezadi. Yangi bilimlar asosida esa jamiyat hayotida moddiy va ma‘naviy hayot hamohangligiga va yangi texnologik, ilmiy, badiiy, ijtimoiy-madaniy yutuqlarga erishiladi;

ikkinchidan, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish va jamiyatni boshqarish funksiyasi. Mazkur yutuqlar va ijtimoiy aloqalar asosida esa jahon hamjamiyati

bilan hamkorlikda global sivilizatsiyaning zamonaviy shaklini yaratishga zamin hozirlaydi;

uchinchidan, milliy birdamlikni, hamjihatlikni, ijtimoiy hamkorlikni ta'minlash (konsolidatsiya) funksiyasi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev haqli ravishda aytganidek, "Ma'naviyat – jamiyat taraqqiyotini belgilovchi asosiy mezondir. Chunki odamlarning ma'naviyati yuksalgandagina jamiyatda tinchlik, xotirjamlik va taraqqiyot bo'ladi"⁵.

to'rtinchidan, hurfikrli, yuksak madaniyatli, milliy iftixor tuyg'usiga ega faol vatanparvar fuqarosini tarbiyalash. J.Tulenov so'zlari bilan aytganda, "Ma'naviy hayotimizda erishgan dastlabki, eng birinchi va asosiy yutug'imiz shu bo'ldiki, Vatanimizda insoniy qadr-qimmat yuksak maqom kasb etdi, xalqimiz sarchashmalarining ko'zlari qaytadan ochildi, jamiyatimizni madaniy-ma'naviy jihatdan yangilash ishlariga jiddiy ravishda kirishildi. Bozor munosabatlariga yuksak ma'naviyat va ma'rifat negizida o'tish boshlandi. Huquqiy bilim va madaniyat rivojlantirila boshlandi. Kishilarda yangicha falsafiy tafakkurlash usuli shakllana bordi"⁶.

Dissertatsiyada "Ma'naviy-ma'rifiy islohotlar – jamiyat taraqqiyot yo'lining ilmiy-g'oyaviy ifodasi, uning yangicha dunyoqarashi va ijtimoiy ongidir hamda jamiyatdagi munosabatlarni tartibga soluvchi, milliy birlikni amalga oshiruvchi obyektiv madaniy shart-sharoitlar, ehtiyojlar, mafkuraviy xarakterdagi strategik islohotlarimiz natijasi hamda ma'rifatli jamiyatni rivojlantirishga qaratilgan subyektiv omillar va sa'y-harakatlar majmuidir" – deb ta'riflangan.

Tadqiqotchi fikricha, Sharq va G'arb faylasuflarining ilg'or g'oyalari xususan, jahon madaniyatining noyob yodgorligi "Avesto"da ilm-ma'rifat rivoji va uning jamiyat taraqqiyotidagi roli xususida "qorong'ulikdan yorug'likka chiqqanday, bilimsizlikdan ma'rifat sari, dunyo haqidagi tasavvurlar hamda tushunchalar tomon siljish ma'naviyat yo'lini qanchalik uzun va uzluksiz ekanligidan dalolat berishi"⁷ ta'kidlanadi. Ma'naviy-ma'rifiy islohotlar tarixida islom va tasavvuf ta'limoti muhim burilish nuqtalaridan biri bo'lib, unda ilm izlash har bir musulmonning muqaddas burchi sifatida qaralgan. Jumladan, G'ijduvoniylar "Vasiyatnoma" asaridagi hayotbaxsh o'gitlarida insonni ilm va ma'rifatga rag'batlantirib, "Ilm qidirishdan bir qadam ham uzoq bo'lma. Bu vasiyatlari ilm izlash jarayoni inson uchun doimiy odat bo'lishiga ishoratdir"⁸, fikri orqali asoslangan. Forobiy ijtimoiy-falsafiy qarashlarida bilim, fan, axloq va ma'rifat sohasida yuksak darajaga ko'tarilgan. Ibn Sinoning "Hikmat buloqlari" asarida ma'naviyat va ma'rifat insonlarning baxt-saodatli bo'lishini ta'minlovchi, yo'l-yo'riqlarni aniq-ravshan ko'rsatib beruvchi vositadir.

Uchinchi Renessans poydevorini yaratishda xalqimiz milliy uyg'onishi, ma'naviy-ma'rifiy yuksalishi va taraqqiy etgan jamiyat barpo etishda ma'rifatparvarlarimizning o'rni beqiyos. Xususan, Behbudiy Turkistondagi

⁵ Mirziyoyev Sh.M. Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston. -Toshkent: "O'zbekiston", 2024. -B.237.

⁶ Туленов Ж. Маънавий юксалиш сари. –Тошкент: "Меҳнат", 2000. – Б.7.

⁷ Авесто. Тарихий-адабий ёдгорлик. / Асқар Маҳкам таржимаси. –Тошкент: "Шарк", 2001. –Б.370-371.

⁸ Наврўзова Г. Абдуллохлик Ғиждувоний. Монография. –Самарқанд: "Имом Бухорий халқаро маркази", 2020. –В.49.

ma'naviy-ma'rifiy holatni o'rganar ekan, "ma'rifat uchun birgina maktab kifoya qilmasligi, zamon va dunyo voqealari bilan tanishib borishi, millat va Vatanning ahvolidan, kundalik hayotidan ogoh bo'lishi kerakligi"⁹ni alohida ta'kidlaydi. Abdulla Avloniy ilmning inson hayotidagi o'rni, ilm odamlarni jaholat zulmatidan qutqarib, ma'naviy-ma'rifiy yangilanishning eng asosiy manbai ekanligini keltirgan. Is'hoqxon Ibrat esa, ta'lim-tarbiya, madaniyat va taraqqiyotning yagona asosi deb biladi.

Dissertant mulohazalariga ko'ra, ma'naviyat va ma'rifat jamiyatning axloqiy, madaniy va intellektual rivojlanishining asosiy omili sifatida mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy, siyosiy hamda iqtisodiy islohotlarning samaradorligini belgilaydi. U inson tafakkurini yuksaltirish, milliy qadriyatlarni mustahkamlash va demokratik yangilanishlarni ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ma'naviy-ma'rifiy islohotlar bosqichma-bosqich va tizimli tarzda amalga oshiriladigan murakkab jarayon bo'lib, jamiyatning axloqiy fazilatlarini yuksaltirish, ma'rifatli avlodni voyaga yetkazish, milliy madaniy meros hamda tarixiy yodgorliklarni asrab-avaylash, shuningdek, ilm-fan, ta'lim-tarbiya, madaniyat va san'at sohaslarini chuqur isloh etish orqali ijtimoiy taraqqiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“O‘zbekistonda barqaror taraqqiyotini ta‘minlashda ma‘naviy-ma‘rifiy islohotlarning ijtimoiy-falsafiy tahlili”** deb nomlanib unda dunyo arenasida “Yangi O‘zbekiston” fenomenining shakllanishi, ma'naviy-ma'rifiy islohotlar implementatsiyasi milliy va umuminsoniy rakursda ko'rib chiqilib, mamlakatda ijtimoiy-siyosiy hayot jabhalaridagi o'zgarishlar, uzluksiz ta'lim tizimi, sport, bolalar san'at va musiqa maktablari yoshlarning estetik rivojlanishiga keng imkoniyatlarni taqdim etayotganligi asoslangan.

“Yangi O‘zbekiston” g‘oyasi va amaliyoti jamiyat taraqqiyotining faqat siyosiy-iqtisodiy emas, balki ijtimoiy-axloqiy, ma'naviy-madaniy mezonlar asosida ham yangicha bosqichga ko'tarilayotganini ko'rsatmoqda. Chunki jamiyatning yangilanishi, avvalo, inson ongi, tafakkuri, qadriyatlar tizimi va ijtimoiy faolligidagi sifat o'zgarishlari orqali ro'yobga chiqadi. Shu jihatdan, “Yangi O‘zbekiston” g‘oyasi ma'naviy-ma'rifiy islohotlarning mazmun-mohiyatini belgilab beruvchi konseptual tayanch nuqta sifatida namoyon bo'ladi.

Dissertant fikricha, O‘zbekistonda ma'naviy-ma'rifiy islohotlar turli ko'rsatkichlar bilan farqlanib, quyidagilarda namoyon bo'ladi:

birinchidan, O‘zbekistonning barqaror taraqqiyotini taminlashda ma'naviy-ma'rifiy islohotlar bosqichma-bosqich olib borilmoqda;

ikkinchidan, dunyo arenasida Yangi O‘zbekiston fenomeni regenerativ ahamiyat kasb etmoqda;

uchinchidan, ma'naviy-ma'rifiy islohotlar umumjahon taraqqiyotining umume'tirof etilgan tendensiyalari o'zanida amalga oshmoqda.

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ma'naviy-ma'rifiy islohotlar, ilm-fan namunalari, madaniyat, sport va san'at sohasidagi yangi texnologiyalar va ishlanmalarga nisbatan yangi brend - “Yangi Ozbekiston” fenomenining

⁹ Abdurashidov Z. Jadidlar. Mahmudxo'ja Behbudiy. –Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2022. –B.30.

shakllanayotganligini ko'rsatmoqda. Dunyo arenasida Yangi O'zbekiston fenomenining shakllanishi Uchinchi Renessans sharoitida to'rtinchi sanoat inqilobi sharoitida yuz beradi¹⁰. Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan "davlat xodimi, avvalo, xalq xizmatchisi bo'lishi, davlat organlari xalqqa xizmat qilishi shart!"¹¹ degan g'oya – inson manfaatlari, huquq va erkinliklari ustuvorligini e'tirof etgan holda, ma'naviy sohada ham yangicha qarashlarni boshlab berdi.

Dissertatsiyada Yangi O'zbekiston fenomeni – bu faqat iqtisodiy yoki siyosiy islohotlar emas, balki jamiyat ongining, ma'naviy qiyofasining yangilanishi ekanligi ta'kidlangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 20-yanvarda "Yoshlar siyosati va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-18-sonli farmoni yoshlar orasida sport harakatini rivojlantirish Yangi O'zbekiston g'oyasining asosiy maqsadlaridan biri ekanligini ko'rsatdi. Iqtidorli o'quvchilarga sharoit yaratish uchun viloyatlarda axborot texnologiyalari yonalishiga ixtisoslashgan Al-Xorazmiy, muhandislik fanlari bo'yicha Mirzo Ulug'bek, tabiiy fanlar yo'nalishida Ibn Sino maktablari filiallari tashkil etila boshlanganligi ma'naviy-ma'rifiy islohotlarimiz inson kamolotini ta'minlashga qaratilganligidan dalolat bermoqda. Yangi O'zbekiston fenomenida uzluksiz ta'lim tizimi qamrovini oshirish: inson, jamiyat va davlat rivojini kafolatlaydi. 2025-yildan boshlab Ilk rivojlanish markazlarining tashkil etilishi mamlakatimizda 3-6 yoshli bolalarga bepul ta'lim-tarbiya xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha amaliyot yangi sifat bosqichiga kirganligini ko'rsatmoqda. UNESKOning ta'lim shaharlari global tarmog'iga 2019 yildan Toshkent shahri, 2020-yil 23-sentyabrida Fargona shahri qo'shilgan¹². 2022-yilda Marg'ilon shahriga Jahon hunarmandlar kengashi tomonidan Hunarmandlar shahri maqomi berildi.

Dissertant mulohazalariga ko'ra, O'zbekistonda barqaror taraqqiyotni ta'minlashda "Yangi O'zbekiston" fenomeni davlat va jamiyat hayotining yangi bosqichga ko'tarilganini ifodalovchi konseptual fenomen bo'lib, uning shakllanishida tarixiy xotira, milliy davlatchilik tajribasi, modernizatsiya ehtiyoji, ochiqlik va adolat tamoyillarining kuchayishi, inson qadri va erkinligini oliy mezon sifatida e'tirof etish hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qilgan. Ushbu fenomenning mazmunida yangilanayotgan jamiyat, siyosiy-huquqiy, ma'naviy-madaniy va ijtimoiy institutlar, faol, ongli, daxldor va ma'rifatli shaxs markaziy o'ringa chiqadi. Madaniyat va ma'rifat sohasiga kiritilayotgan investitsiyalar jamiyatda ijobiy iqtisodiy, siyosiy va madaniy transformatsiyalarga sabab bo'ladi. Bu islohotlar pirovard natijada ijtimoiy sohada kumulyativ samaraga olib keladi va global barqaror rivojlanish ko'rsatkichlarida yuqori indeksni qayd etilishiga olib keladi. Demak, barqaror taraqqiyotning haqiqiy kafolati moddiy imkoniyatlar bilan bir qatorda ma'naviy yetuklik, ma'rifiy yuksalish va ijtimoiy ong transformatsiyasining uyg'un rivojida mujassamdir.

¹⁰ Абдурахим Эркаев. Янги Ўзбекистон: Мўлжал –Учинчи ренессанс. –Т.: “Маънавият”. 2021. –Б. 17.

¹¹ Mirziyoyev Sh. M. Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston.-Toshkent: "O'zbekiston", 2024. –B.46.

¹² Institute of learning cities UNESCO's Global Network of Learning Cities // <https://www.uil.unesco.org/en/learning-cities/tashkent>

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Yangi O‘zbekiston taraqqiyotini ta‘minlashda ma‘naviy-ma‘rifiy islohotlarni takomillashtirish masalalari”** deb nomlanib, unda Yangi O‘zbekistonning ma‘naviy-ma‘rifiy islohotlar sohasidagi ustuvor yo‘nalishlari va ularning rivojlanish dinamikasi tahlil etilgan. Ma‘naviy-ma‘rifiy islohotlar Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining ma‘naviy poydevori, ijtimoiy barqarorlikning ichki omili va jamiyat modernizatsiyasining insoniy mazmunini ta‘minlovchi muhim strategik yo‘nalish sifatida asoslangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-maydagi PQ-4307-son “Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”¹³gi hamda 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son “Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”¹⁴gi qarorlari, “Uzluksiz ma‘naviy tarbiya konsepsiyasi”¹⁵ning qabul qilinishi madaniyat, san‘at va xalq hunarmandchiligi sohalarini rivojlantirishga oid fnormativ hujjatlar milliy meros, yoshlar axloqi va identifikatsiyaning mustahkamlanishida muhim ahamiyatga ega. “Bir ziyoli – bir mahallaga ma‘naviy homiy” tamoyili, oqsoqollarni yetarli darajada faollashtirish va yoshlar bilan ma‘naviy aloqani kuchaytirish orqali jamiyatda birdamlik, hurmat va axloqiy mas‘uliyat muhitini yaratishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. “Yangi ma‘naviy makon” konsepsiyasi orqali zamonaviylik va an‘anaga asosiy qarashlar uyg‘unligi ta‘kidlanadi. Islohotlar nafaqat zamonaviy tahdidlarga (ma‘naviy tanazzul, axloqiy relevativizm) qarshi kurash, balki jamiyatning ichki uyg‘unligi va barqaror taraqqiyoti uchun zarur ma‘naviy poydevorni yaratishga xizmat qiladi.

Tadqiqotda “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida ma‘naviy taraqqiyotni ta‘minlash va madaniyat sohasini yangilash bo‘yicha yettita tizimli yo‘nalish tahlil etilgan. Ushbu yo‘nalishlar shaxs, jamiyat va milliy merosni uyg‘unlashtirish, axloqiy barqarorlik va madaniy identifikatsiyani mustahkamlash kabi asosiy tamoyillarni o‘zida mujassam etadi. Ushbu yo‘nalishlar shaxsiy va jamoaviy ongni rivojlantirishga, milliy identifikatsiyani qayta tiklashga va global muhitda o‘z o‘rnini mustahkamlashtirishga xizmat qiladi. Falsafiy jihatdan bu yondashuv – ma‘naviy barqarorlik, ahloqiy yo‘naltirilganlik va madaniy uyg‘unlik tamoyillarini jamiyat taraqqiyoti poydevori sifatida ko‘rish demakdir. Bugungi kunda yosh avlod ko‘proq raqamli platformalarda vaqt o‘tkazayotgani bois, kino orqali ularga yetkaziladigan g‘oyaviy mazmun jamiyat taraqqiyotida muhim o‘rin tutadi.

Tadqiqotda ma‘naviy-ma‘rifiy sohaning ustuvor yo‘nalishlari davlat siyosatidagi ustuvor vazifalar bilan uyg‘un holda shakllanishi, ularning mazmuni jamiyat ehtiyojlari, milliy taraqqiyot strategiyasi va global sivilizatsion o‘zgarishlar ta‘sirida yangilanib borishi ochib berilgan. Shu nuqtai nazardan, ma‘naviy-ma‘rifiy islohotlar faqat madaniy-ma‘rifiy chora-tadbirlar tizimi emas, balki shaxs, jamiyat

¹³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-maydagi “Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4307-sonli qarori // <https://lex.uz/docs/4320700>

¹⁴ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi “Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5040-sonli qarori // <https://lex.uz/docs/5344692>

¹⁵ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda “Uzluksiz ma‘naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1059-sonli qarori // <https://lex.uz/docs/4676839>

